

## **BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY QADRIYATLI YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Sayfullayeva Gulchiroy Alisherovna**

Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

Dunyo ta‘lim tizimida bolalarning bilim olish jarayoniga shaxsiy qadriyatli yondashuvni amalga oshirish boshlang‘ich ta‘lim sohasidagi yangilanishlarning alohida ko‘rinishi hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagoglarning ta‘lim jarayonida o‘quvchiga qadrli va muhim jihatlarga e‘tiborli bo‘lib, qo‘llab- quvvatlash, zarur hollarda rag‘batlantirish pozitsiyasida turishga doir bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyoti har tomonlama barkamol insonlar shaxsini shakllantirish masalasi bilan bog‘liq. Buning uchun esa avvalo, ularning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil tafakkur hamda ahloqiy fazilatlarni yuksak darajada shakllantirish mas‘uliyatiga ega pedagoglar tayyorgarligiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Shu bilan birga ularda sharqona odob-axloqqa xos bo‘lgan barcha xislatlar, fazilatlar, jumladan, kattalarga hurmat, shirin so‘z, mehribonlik, yurtni e‘zozlash, saxiylik va ilm egallash kabilar mujassam bo‘lmog‘i lozim. Bu borada millatimizga xos bo‘lgan axloqiy qarashlar, tartib-qoidalarni o‘zida mujassam etgan milliy qadriyatlar bizga asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Respublikamizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qadriyatli yondashuvga oid muammolar M.Abdullaeva, X.Axmedova, M.Inomova, O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Nishonova, D.X.Kosimova, S.U.Kistaubaev, Z.B.Jalilov, G.Mamatova, G.A.Xolboeva, E.G‘.G‘oziev, M.G.Davletshin, Sh.A.Do‘stmuamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbaevalar tomonidan tadqiq etilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish metodikasi dissertatsiya ishi darajasida o‘rganilmagan. Shu sohada amalga oshirilgan dissertatsiya ishlarining tahlili mazkur mavzuning to‘g‘ri tanlangani va nazariy-eksperimental jihatdan yetarli o‘rganilmaganligini asoslaydi.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish metodikasi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish jarayoni belgilangan.

Tadqiqot predmeti boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish mazmuni, metodlari, shakllari va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish metodikasi muammolari, ularni tahlil qilish, savodxonlikni oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni qo'llash mumkin bo'lgan vaziyat va jarayonlarni tizimga solish va unga muvofiq didaktik tamoyillarini ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv mazmuni va strukturasi aniqlash, shaxsiy qadriyatli yondashuv metodikasini ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni qo'llash samaradorligini aniqlash bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazish, natijalarni matematik- statistik metodlar yordamida tahlil qilish, umumlashtirish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflariga savod o'rgatish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflari savod o'rgatish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda qo'llashning ilmiy-metodik va didaktik muammolarini hal qilish, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarini hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarida ma'ruza, bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi bajarishda umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida shaxsiy qadriyatli yondashuvni qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan qurollantirish, boshlang'ich sinflarda o'qish fani dasturi, darslik va o'quv- metodik qo'llanmalarni shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida o'qitishga yo'naltirilgan materiallar bilan boyitish bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar ilmiy-metodik ishlanmalar bilan ta'minlangan, o'qish fani mazmuni boyitilgan, ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalardan o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlari kurslarida foydalanish, tadqiqot natijalaridan o'quv dasturlari tuzish va shu asosda o'quv-metodik qo'llanmalar

yaratishda foydalanish, shuningdek, ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar pedagogik tadqiqot ishlarini o'tkazish jarayonida foydalanish mumkinligi belgilab beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Mardonov Sh., Xodjayev B., Taylanova Sh., Xojimuxamedova D. Pedagogik aksiologiya. (o'quv qo'llanma) -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 184 bet.
2. Dilfuza Ruzikulovna Shabbazova BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA QADRIYATLI YONDASHUV VA SAVODXONLIK MUNOSABATLARI DARAJASINI TASHXIS QILISH METODIKASI // Academic research in educational sciences. 2023. №TMA Conference.
3. Савинова Л.Ю. (2019) Трудности диагностики эмоциональнооценочного компонента ценностных отношений младших школьников. Комплексные исследования детства, т. 1, № 1, с. 57–64. DOI: 10.33910/2687-0233- 2019-1-1- 57-64.
4. Ядов В.А. Социальная психология личности // Социология и современность. 2003. Т. 1. С. 75-90, 106-120.
5. Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012.